

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrası
Ochiq dars muhokamasi
BAYONNOMASI

Sana:

__ .11.2025-yil

Qatnashdilar: Kafedra mudiri, kafedra professor-o'qituvchilari

Kun tartibi: Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrası o'qituvchisi **Temirova Muattar Amirqul qizining** 1-kurs 107-guruhda Til aspektlari amaliyoti fanidan "Behaviour" mavzusida o'tkazgan amaliy ochiq darsini muhokama qilish.

2025-yil 20-noyabr kuni 107-guruhda, 312-auditoriyada o'qituvchi **Temirova Muattar Amirqul qizi** tomonidan "Behaviour" mavzusida 80 daqiqalik amaliy ochiq dars o'tkazildi. Mazkur mashg'ulot talabalarda kundalik muloqotda uchraydigan noqulay vaziyatlardan chiqib ketish strategiyalari, odob-axloq bilan bog'liq til birliklaridan to'g'ri foydalanish hamda behaviour idiomslarning nutqdagi qo'llanilishini mustahkamlashga qaratildi.

Dars boshida o'qituvchi talabalar bilan salomlashib, mavzuning maqsad va vazifalarini qisqa, sodda hamda tushunarli tarzda bayon qildi. Kirish bosqichi interaktiv savol-javob shaklida tashkil etilib, talabalardan "What was the most awkward situation you have ever faced?" kabi savollar orqali darsga motivatsiya yaratildi. Ushbu bosqich talabalarni erkin fikrlashga undadi va darsga faol ruhda kirib kelishiga xizmat qildi.

Asosiy qismda o'qituvchi behaviour idiomslarning ma'nosi, qo'llanilishi va ular orqali vaziyatni tasvirlash usullarini misollar asosida tushuntirdi. Talabalarga vaziyatli kartochkalar tarqatilib, har bir guruh berilgan awkward situationga mos idiomlardan foydalanib dialog tuzish topshirig'i berildi. Ushbu faoliyat talabalar nutqiy faolligini oshirdi, jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamladi va kommunikativ yondashuvning samarali qo'llanishiga zamin yaratdi.

Dars jarayonida zamonaviy interaktiv usullar — "Think-Pair-Share", "Roleplay", "Matching idioms with situations" kabi mashqlar qo'llandi. Talabalar noqulay vaziyatlardan chiqish strategiyalarini ingliz tilidagi namuna dialoglar orqali amaliy ravishda bajardilar. Raqamli ta'lim vositalaridan ham samarali foydalanildi: Kahoot platformasida behaviour idiomslarga oid test o'tkazilib, talabalar o'z bilimlarini tezkor baholab oldilar. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan kichik sahnalashtirilgan rolly o'yin tashkil etildi. Unda talabalar guruhlarda bir-biriga awkward situation yaratish va unga mos ravishda polite reaction bilan javob qaytarish topshirig'ini bajardilar. Mazkur mashq talabalar nutqi, muomala madaniyati va pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qildi.

Dars yakunida asosiy idiomlar umumlashtirildi, talabalar bilan qisqa savol-javob amalga oshirildi. O'qituvchi uyga vazifa sifatida talabalar real hayotdan bir noqulay vaziyatni tasvirlab, uni behaviour idiomslardan foydalanib yechimini yozma tarzda bayon etish topshirig'ini berdi.

Mazkur dars yuzasidan kafedra katta o'qituvchisi **M. Sobirjonova** so'zga chiqib, dars mazmunining zamonaviy kommunikativ yondashuvga asoslanganini ta'kidladi. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, rol o'yinlari va raqamli platformalar samarali qo'llangani darsning mazmungan boy bo'lganini ko'rsatdi. Talabalar faol ishtirok etgani, nutqiy mashqlar to'g'ri tanlangani va darsda yuqori dinamika saqlangani ma'qullandi.

Shuningdek, kafedra o'qituvchisi **G.Xabibulloyeva** dars jarayonida talabalar o'z fikrini erkin bildirganligi, idiomlarning amaliy nutqda qo'llanishi bo'yicha samarali misollar keltirilganligi va mashg'ulotning mantiqiy ketma-ketlikda olib borilganligini ijobiy baholadi. U darsni mazmungan boy, talaba faolligiga asoslangan va kommunikativ yondashuv bilan uyg'unlashgan ochiq mashg'ulot sifatida e'tirof etdi.

Xulosa


1. O'qituvchi Temirova Muattar Amirqul qizining ochiq darsi yuqori saviyada tashkil etilganligi qayd etilsin.
2. Darsda qo'llanilgan interaktiv metodlar, raqamli vositalar va kommunikativ yondashuv samarali deb topilsin.
3. Dars jarayonida talabalar faolligini oshirish bo'yicha o'qituvchining metodik tajribasi ommalashtirilsin.

YIG'ILISH QARORI:

Kafedra yig'ilishi o'qituvchi Temirova Muattar Amirqul qizining ochiq darsini "namunali" deb topdi va uning metodikasini yosh o'qituvchilar uchun tavsiya qilishga qaror qildi.

Yig'ilish raisi:

Kotiba:

V.A.Tangriyev

M.A.Temirova

